

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 198 (987), 2023-yil 28-sentabr, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN GERMANIYAGA BORADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Germaniya Federal Kansleri Olaf Sholsning taklifiga binoan 28-30-sentabr kunlari amaliy tashrif bilan Berlin shahrida bo‘ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Federal Kansler Olaf Shols va Federal Prezident Frank-Valter Shtaynmayer bilan ikki tomonlama muzokaralar o‘tkazilishi, shuningdek, Markaziy Osiyo va Germaniya davlat rahbarlarining uchrashuvlari rejalashtirilgan.

Mamlakatimiz yetakchisi Germaniya iqtisodiyoti Sharqiy qo‘mitasi tomonidan tashkil etiladigan ishbiarmonlik tadbirlarida ham ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

Kun tartibidan O‘zbekiston Prezidentining joriy yil may oyidagi

Germaniyaga rasmiy tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, Germaniyaning yetakchi kompaniya va banklari bilan investitsiyaviy, innovatsiyaviy va texnologik hamkorlikni kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

O‘za

BIZ VA DUNYO

O‘zbekiston – Germaniya: O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNING YANGI BOSQIHI SARI

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV 28-30-SENTABR KUNLARI AMALIY TASHRIF BILAN GERMANIYADA BO‘LADI

So‘nggi yillarda O‘zbekiston — Germaniya ikki tomonlama hamkorligi yangi sur‘atga ega bo‘ldi. Ikki davlat rahbarlari o‘rtasidagi qizg‘in siyosiy muloqotlar shundan dalolat beradi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 20-22-yanvar kunlari Germaniyaga birinchi rasmiy tashrifi, shuningdek, Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning o‘sha yili 27-29-may kunlari O‘zbekistonga javob tashrifi ikki tomonlama hamkorlik rivojiga kuchli turtki berdi.

Ushbu oliy darajadagi uchrashuvlar davomida erishilgan kelishuvlar, shuningdek, global va mintaqaviy tuzilmalar doiralaridagi o‘zaro hamkorlik masalalari 2021-yil 12-mart kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya kansleri Angela Merkelning onlayn sammitida ham muhokama qilindi.

Davomi 2-betda

MUNOSABAT

KUCHLI VATAN HISSI

Zamonamiz juda murakkab, qiziq, tahlikali... Ertaga nima bo‘lishini ba‘zan tasavvur etish qiyin. Dunyoda goh unda, goh bunda har xil noxush voqealar yuz berib turadi, goh zilzila, goh urush, goh yong‘in... Ularni qanday sharhlashni ham bilmaysan kishi. Lekin inson umid bilan yashaydi.

Shunday pallalarda ajoyib voqealar sodir bo‘ladi, ko‘ngildagi umidga umid, kuchga kuch qo‘shadi, shijoat beradi. BMT Bosh Assambleyasining yaqinda Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan, butun jahon ahlini o‘ziga qaratgan 78-sessiyasi ana shunday voqealardan biri bo‘ldi. Biz uchun bu voqeaning ahamiyatli joyi — unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va yorqin nutq so‘zladi.

Avvalo, davlatimiz rahbarini olam minbarida ko‘rib O‘zbekistonning oddiy bir fuqarosi sifatida cheksiz g‘ururlandim. Boz ustiga, nutq yana ona tilimiz — o‘zbek tilida irod etildi!

Boshidanoq aytib qo‘ya qolay: Shavkat Mirziyoyevning bu amaliy tashrifi AQSH ma‘muriyati tarixiy deb atadi. Turli kompaniya va idoralar bilan o‘zaro shartnomalar tuzildi, bitimlar imzolandi.



Nutqning nutqdan farqi bor. Bu nutq shunchaki nutqlardan emas. Unda faqat O‘zbekiston tashvish-muammolari aytilgani yo‘q. Shuni ahamiyatli, davlatimiz rahbari jahon afkor ommasini tashvishga solib turgan, bartaraf etish yo‘lini qidirayotgan, butun dunyoga tegishli muammolar haqida so‘z yuritdi, so‘z yuritdigina emas, ularni qanday hal qilish borasida ham jo‘yali tashabbus va takliflarni ilgari surdi. Ertaga emas, balki bugun yechimini kutayotgan masalalarni jahon zakolari yodiga soldi, hushyorlikka chaqirdi. Ha, nutqda eng dolzarb global va mintaqaviy masalalar ustida so‘z

ketdi. Nutqda hamjihatlik va amaliy hamkorlik ruhini saqlash, umumiy manfaatlarini mavjud ziddiyatlardan yuqori qo‘ygan holda mamlakatlarni jipslashtirish zarurati tuyg‘usi ufurib turdi. Bu bugungi olachipor zamonda juda muhim yondashishdir.

Yangi O‘zbekiston oldida iqtisodiyotni liberalashtirish yo‘lida turgan yana bir ustuvor vazifa — yaqin orada Jahon savdo tashkilotiga to‘laqonli a‘zo bo‘lish, 2030-yilgacha kambag‘al-likni 7 foizga tushirish reja qilingan.

Davomi 3-betda

DOLZARB MAVZU



YOD TANQISLIGI

nega xavotirli?

Uning oldini olish va muammoni bartaraf qilish mumkin

Dunyo bo‘yicha 2 milliarddan ortiq odam yod tanqisligiga uchragan. Ular orasida 740 million kishida endemik buqoq aniqlangan. 43 million kishi yod tanqisligi sababli aqliy zaiflikdan, 6 milliondan ortiq kishi esa kretinizmdan aziyat chekmoqda. Yod tanqisligi, ayniqsa, Janubiy Afrika va Janubi-sharqiy Osiyoda keng tarqalgan.

Yodning yetarli darajada iste‘mol qilinmasligi inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘dirishi isbot talab qilmaydigan haqiqat. Xususan, yod tanqisligi kuchli bo‘lgan mintaqamizda vaziyat qoniqarli deb bo‘lmaydi. Vaholanki, yod juda muhim mikroelement bo‘lib, qalqonsimon bez gormonlari sintezini ta‘minlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, organizm faoliyatidagi

aksariyat jarayonga ta‘sir qiladi. Jumladan, o‘shish, rivojlanish, ichki a‘zo va tizimlar faoliyati, organizmning kaloriyani qabul qilish (metabolizm) tezligi, aql va reproduktiv funksiyani yaxshilaydi. Tana haroratini me‘yorda saqlash, kalsiy va fosfor almashinuvi, suyak va tishlar mustahkamligini ta‘minlashga yordam beradi. Eng avvalo, organizmdagi



qalqonsimon bez me‘yorda ishlashi uchun kerakli moddadir. Qalqonsimon bez esa, o‘z navbatida, butun organizm to‘g‘ri ishlashini ta‘minlab, vujuddagi tizimlarni boshqarib turuvchi a‘zo hisoblanadi.

Davomi 5-betda

BUGUNNING GAPI



BUXORO BRENDIGA AYLANAYOTGAN SOHA

Hayotimizga raqamli texnologiyalar kirib kelishi tufayli yangi ko‘rinishdagi iqtisodiy muhit, ya‘ni raqamli iqtisodiyot vujudga keldi.

Prezidentimizning 2023-yil 24-maydagi “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha Buxoro viloyatida keng qamrovli

ishlar olib borilmoqda. Xususan, joriy yilning yarim yilida viloyatda aloqa va axborotlashtirish sohasidagi xizmatlar 122,1 foizni tashkil etdi. Kompyuter dasturlash xizmatlari hajmi 14,7 milliard so‘mga yetib, o‘shish 103,1 foizga yetdi.

Davomi 5-betda

NUQTAYI NAZAR

MAHALLADA KIM NIMA BILAN SHUG‘ULLANISHI YANADA ANIQLASHDI

Mahalla — dunyoda muqobili yo‘q o‘zini o‘zi boshqarish maskani. Uning quvonchi, tashvishi, yutug‘iyu kamchiligi ana shu yerda yashayotgan odamlarniki. Shu jihatdan olganda, Prezidentimiz raisligida mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari muhokamasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ko‘tarilgan masalalar barchamizga taalluqli, desak mubolag‘a emas. Chunki hammamiz mahallada yashaymiz.

Azaldan mahallaga qadriyatlar, an‘analar, tarbiya maskani sifatida qaraladi va uning rivoji, obodligiga katta e‘tibor qaratiladi. Ana shu qarashning amaliy natijalari keyingi yillarda yanada yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bunda tizimni yanada rivojlantirish, mahallalarni fuqarolarga chinakam ko‘makchi tuzilma sifatida shakllantirishning qonunchilik bazasi takomillashtirilayotgani qo‘l kelmoqda.

Ayniqsa, davlat organlarining natijadorlik darajasi va faoliyati mahallada aks etsagina ijobiy deb topilishini anglatuvchi “mahallabay” ishlash usuli kundalik ehtiyojga aylandi. Natijada turli vazirlik va idoralar bilan mahallalar, u yerda yashayotgan odamlar bilan o‘zaro muloqot o‘rnatildi.

Davomi 2-betda

ISLOHOT ODIMLARI

TEXNOLOGIK TURTKI Ushbu tamoyil asosida yangi mahsulot yoki xizmat turi yaratiladi

Dunyo bo‘yicha tabiiy resurslar taqchilligi kuzatilayotgan bugungi davrda yangicha yondashuv, innovatsion loyihalar iqtisodiy taraqqiyotning muhim drayveriga aylanmoqda. Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya kabi davlatlar misolida ko‘rish mumkinki, innovatsiya va ixtirolar tabiiy resursi cheklangan yoxud umuman mavjud bo‘lmagan davlatlarda ham yillar davomida daromad keltiradigan, qiymati kamaymaydigan manba sanaladi.

Prezidentimizning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori barcha yo‘nalishlardagi ishlarni butunlay yangi bosqichga olib chiqishi bilan katta ahamiyatga ega. Mazkur hujjatda yosh tadqiqotchilar ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash, 40 yoshgacha bo‘lgan tadqiqotchilar ulushini kamida 60 foizga yetkazish, ilmiy tashkilot xodimlarining ish haqini o‘rtacha 2 barobar oshirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, ilmiy, amaliy, innovatsion va startap loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha yillik tanlovlar sonini 20 taga yetkazish ham muhim vazifalardan biri sifatida ko‘rsatilgan.

Bu bejiz emas. Chunki yurtimiz ijtimoiy yo‘naltilgan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakat. Strategiyada belgilangan maqsadlar raqobatbardosh, eksportbop hamda import o‘rnini bosuvchi, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan bo‘lib, sanoatning barqaror va mutanosib ravishda o‘shishi hamda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash asosida uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Har qanday startap g‘oyasi yangilikka — yangi mahsulot, yangi texnologiyalar va ilgari amaliyotga tatbiq etilmagan faoliyatga asoslanadi. O‘zgarishlarga tez moslashadigan, ilg‘or texnologiyalarga asoslangan ishbiarmonlik muhitida rivojlanadigan startap ekotizimining iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati katta.

Davomi 4-betda



MUNOSABAT

KUCHLI VATAN HISSI



Muhammad ALI, O'zbekiston xalq yozuvchisi

Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston yetakchisi BMT Bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan "Ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy himoya global aksele-ratori" borasidagi tashabbusni qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Bu bilan cheklanmasdan, yuqoridagi tashabbus doirasida tajriba almashish uchun 2024-yilda tashkilot shafeligidagi "Ijtimoiy himoya: barqaror taraqqiyot sari yo'l" jahon konferensiyasini uyushtirib, O'zbekistonda o'tkazishni taklif etdi.

Ayni paytda "BMT — Xotin-qizlar tu-zilmasi" bilan hamkorlikni yanada kengay-tirishdan manfaatdor ekanini bildirdi. Bir-galikkdagi tashabbus sifatida yo'llarning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqa-rish yo'llarini muhokama qilish va tajriba orttirish uchun kelgusi yili O'zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o'tkazish tak-lifini berdi.

O'zbekiston o'z tamoyillariga sodiq qol-gan holda bundan buyon ham Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shniqlik, barqarorlik, tinchlik, o'zaro hamkorlik va rivojlanish muhitini mustahkamlash yo'lidan qat'iy borishi ta'kidlandi.

"O'zbeklar "Qo'shning tinch, sen tinch" degan maqolni juda yaxshi ko'radi. Ya'ni o'zidan ham ko'ra, ko'proq qo'shnisini o'ylaydigan xalq. Agar ikki odam uzoq ayriqliqdan so'ng ko'rishib qolsa: "Tinch-misizlar? El-yurt, qo'ni-qo'shni ommonmi?" deb so'raydi.

Prezidentimiz mamnuniyat bilan mam-lakat va uning barcha qo'shnilarining bir-galikkdagi sa'y-harakatlari tufayli davlat chegaralari, transport koridorlari va sudan foydalanish bo'yicha muammolarni bartaraf etishga muvaffaq bo'linganini alo-hida qayd etdi.

Keyingi yetti yil ichida "mintaqa" so'zi alohida ma'no kasb eta boshladi. Bu so'z hozir bir kichik, puchmqo, ovloq, parcha joy emas, bir necha davlatni o'z ichiga olgan keng makonni anglatadi. Markaziy Osiyo mintaqasi shu tarzda yuzaga keldi. Bugungi kunda mintaq davlatlari o'rtasi-da o'zaro savdo ikki yarim barobardan ziyod, qo'shma xonxonalari soni esa besh karra o'sdi. Mintaqa iqtisodiy rivojlanish markaziga, Sharq va G'arbi, Shimoli va Janubni bog'laydigan transport kommu-

nikatsiya ko'prigiga aylanib, unga qiziqish tobora ortib bormoqda. Kelajagi, Xudo xohlasa, porloq bo'lishiga shubha yo'q.

Nutqda hayotimizga, jumla-i jahonga tegishli muammolar haqida aniq va lo'nda xulosalar berilganki, ularni anglab yetish qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunonchi, O'z-bekiston tomonidan Orol fojiasi oqibatla-rini bartaraf etish yo'lida ko'rilayotgan cho-ralar, mintaqadagi iqlim o'zgarishining sal-biy ta'siri va suv bilan ta'minlanlganki da-rajasi kamayish tendensiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar aytib o'tildi. Bu ham muhim va dolzarb muammolardandir.

Yaqinda bir guruh yozuvchilar va ziyovillar Mo'ynoqqa borib keldik. "Yangi Mo'ynoq" kitobi taqdimoti bo'ldi.

Yangi Mo'ynoq qurildi, dengiz qurigan tubining 1,7 million gektariga saksovul, qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar ekil-di. Bu boradagi ishlar davom etmoqda. Qushlar uchib kelmog'da, hayot iza-ga tushmog'da. Prezidentimiz bir gal sodda, xalqona qilib: "Agar o'n so'm topsam, olti so'mini Qoraqalpog'istonga sarf qilaman!" dedi. Bu — haq gap.

Vaziyatdan kelib chiqqan holda Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh kotibining Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili la-vozimi ta'sis etilishi, Markaziy Osiyo suvi-tej aydigan texnologiyalar platformasi yaratilishi va mintaqada qabul qilingan Yashil taraqqiyot dasturi doirasida tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilishini qo'llab-quv-vatlab gapirdi.

"Markaziy Osiyo iqlim muloqoti" joriy etilishi deysizmi yoki BMT Bosh Assam-bleyasining "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamijhatlik" rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini aytasizmi, Prezi-den-timiz kelgusi yil Samarqandda bo'lib o'ta-digan xalqaro iqlim forumida bari muhoka-ma qilindi, deb umid bildirdi.

Davlatimiz rahbarining jahon miqyosi-da dinlararo bag'rikenglik va hamkorlikni keng targ'ib etish maqsadida O'zbekis-tonda UNESCO shafeligida Dinlararo mu-loqot va bag'rikenglik xalqaro markazini tashkil etish taklifi ayni muddao sifatida qabul qilindi.

Buyuk olimlarimiz boy merosini o'rga-nish, islomning asl insonparvarlik mohiyati-ni chuqur ochib berish maqsadida 2024-yil-da O'zbekistonda "Islom — tinchlik va ezgulik dini" mavzusida konferensiya o'tka-zish, afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytirmaslik, shu ma'noda, Afg'onistonning muzlatilgan xalqaro akti-vlarini bu yurtdagi o'tkir ijtimoiy muam-molarni hal etishga yo'naltirish uchun maqbul mexanizmlarni ishlab chiqish, piro-varidida, dunyo hamjamiyatini Afg'oniston muammosini hal etish yo'lida birlashishga va bu borada BMT rahnamoligida Afg'onis-ton bo'yicha hamkorlikda ishlab chiqilgan, vaziyatga moslashuvchan va konstruktiv pozitsiyani belgilash va boshqa muammol-ha qida so'z yuritildi.

"Bizga tinch va barqaror, mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida ishtirok etadi-gan, qo'shnilari va boshqa mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli sheriklik uchun ochiq Afg'oniston kerak!". Prezident



“DAVLATIMIZ RAHBARINING JAHON MIQYOSIDA DINLARARO BAG'RIKENGLIK VA HAMKORLIKNI KENG TARG'IB ETISH MAQSADIDA O'ZBEKISTONDA YUNESKO SHAFELIGIDA DINLARARO MULOQOT VA BAG'RIKENGLIK XALQARO MARKAZINI TASHKIL ETISH TAKLIFI AYNI MUDDAO SIFATIDA QABUL QILINDI.

Shavkat Mirziyoyevning bu da'vati yuksak minbardan qat'iy jarangladi. Meni mamnun qilgan yana bir hodi-sa: O'zbekiston Prezidentining AQSHda yashayotgan va ishlayotgan bir guruh vatandoshlar hamda ushbu mamlakat-ning yetakchi oliy ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan "El-yurt umidi" jamg'armasi sti-pendiatalari bilan uchrashuvi bo'ldi.

Uchrashuvni oynai jahonda tomosha qilar ekanman, yurtodoshlarimni ko'rib ha-yajonga tushdim. O'zimizning qizim ham Amerikada yashaydi. Shavkat Mirziyoyev vatandoshlarning har biri bilan ortiqcha mulozamatlarsiz, insoniy tarzda, nihoyat-da samimiy qo'l berib ko'rishib chiqdi. Bu haqda ishtirokchilar ijtimoiy tarmoqlarda taassurotlarini ifoda etdi, o'z sahifalarida yozdi. Nazarimda, go'yo ota sog'inib, uzoq mamlakatda o'qiyotgan, yashayotgan farzandlarini ko'rishga, ulardan hol-ahvol so'rashga kelgan edi. Xuddi shunday...

Ochiq va jonli muloqot shaklida o'tgan uchrashuvda Prezidentimiz vatandoshlar-ga Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiya-si to'g'risida so'zlab berdi, mamlakat mod-ernizatsiyasiga ko'maklashishda vatandoshlarda ulkan salohiyat borligiga e'tibor qaratdi. Shu asnoda vatandoshlar va ularni birlashtiruvchi tashkilotlar O'zbekiston — AQSH hamkorligini rivojlantirishga katta hissa qo'shayotganini alohida ta'kidladi. Barcha juda qiziqib tinglab o'tirdi.

Davlatimiz rahbari vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash, ularning jamoat birlashmalari faoliyatini qo'llab-quv-vatlashga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi. Xorijda o'zbek tili kurslari-ni tashkil etishga keng ko'maklashish, vatandoshlarning O'zbekiston tarixiy shaharlarini ziyorat qilishi uchun maxsus turizm xizmatlari turlarini ishlab chiqish re-jalashirilganini aytib o'tdi.

"Biz ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyotda olib borayotgan yangilanishlar natija-sini har bir vatandoshimiz o'z hayoti-da his qilishi kerak — dedi Prezident.

— Sizlardek xorijda o'qigan, yirik kom-paniyalarda ishlab, tajriba orttirgan yuqori malakali mutaxassislar ham yurtimizga qaytib kelishi va butun salo-hiyati bilan Yangi O'zbekistonda barpo etishda ishtirok eta olishi uchun barcha sharoitni yaratishimiz kerak. Bu-gun shu yerdagi har bir o'zbekistonlik-da kuchli Vatani hissi va uning rivojiga hissa qo'shish ishtiyoqini ko'rib, juda xursand bo'ldim. Sizlarni O'zbekiston-da kutib qolamiz!"

Vatandoshlar chehrasiga qaradim. Chehralar ochiq, ularda Prezident yo'qla-ganidan, hol so'rab kelganidan mamnuni-yat tuyg'usi sezilib turardi.

Katta kompaniyalarda ishlayotgan va nufuzli oliy ta'lim dargohlarida o'qiyotgan vatandoshlar o'z fikr va takliflarini bildirdi. Uchrashuvda iqtisodchilar — Harvard universiteti doktoranti Botir Qobilov ham-da Viskonsin universiteti katta ilmiy xodimi Behzod Hoshimov yangi O'zbekiston, iqtisod haqida o'z mulohazalarini bayon etdi. Jamiyat hayoti va iqtisodiyotning turli so-halari yuzasidan fikrlar almashildi.

AQSHga amaliy tashrif Prezidentim-ning uzoqni ko'zlaguvchi zukko rahbar, donishmand siyosatchi va katta strateg sifatida jahon miqyosida nufuzli xalqaro arbobga aylanib borayotganini yana bir bor isbot etdi.

Uchrashuvda ishtirokchilardan biri: "Vatanimizga xizmat qilish sharaf va majburiyatdir!", degan jumalani aytdi, nazariimda, bu so'zlar butun ishtirokchilar fikrini ifoda qildi.

Davlatimiz rahbari AQSHdagi yurt-doshlarimiz bilan uchrashganida har bir o'zbekistonlikda kuchli Vatani hissi bor-ligini ta'kidladi. Biz ham Prezidentimiz BMT minbarida nutq so'zlaganida, AQSH Prezidenti Jozef Bayden va ishbilarmon doira vakillari bilan uchrashganida ayrgan fikrlarida, vatandoshlarning dil izhorlarida kuchli Vatani hissi gupurib turganini yura-kdan sezar edik.

Ijtimoiy barqarorlik va strategik tayanch hozirgi o'ziga xos va murakkab davrda rivojlanish uchun eng muhim zaruratlardan biriga aylandi. Nafaqat bir mamlakat, balki mintaq va xalqaro miqyosda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash dolzarb, ayni paytda qiyin vazifa bo'lib bormoqda. Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqida dunyo jamoatchiligi e'tiborini ana shu hayotiy masalaga qaratdi.

IJTIMOY HIMOYA — BARQAROR TARAQQIYOT SARI YO'L

Ulug'bek INOYATOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari



Nutqda ilgari surilgan har bir fikr, har bir taklif-tashabbus mohiyat-e'tiboriga ko'ra, hamkorlik, hamijhatlikni kengaytirishga, o'zaro muloqot asosida muammolarga yangi yechimlar topishga, pirovardida, ijti-moiy barqarorlikka yo'naltirilgan bilan ham ahamiyatli.

O'zbekiston yetakchisi yangi tashab-buslarni ilgari surish bilan cheklanmay, ular-ni amalga oshirishda yurtimiz mezbom va ishtirokchi davlat sifatida faol qatnashishga tayyor ekanini ham bildirdi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston BMTning barqarorlikka xizmat qiladigan barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab kelmoq-da. Davlatimiz rahbari BMT Bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan "Ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy himoya global aksele-ratori" tashabbusini qo'llagan holda, taj-riba almashish uchun 2024-yili ushbu nufuzli Tashkilot shafeligida "Ijtimoiy hi-moya: barqaror taraqqiyot sari yo'l" bu-tunjahon konferensiyasini yurtimizda o't-kazishni taklif qildi.

Inson farovonligiga erishish avvalo, ilm-u ma'rifat orqali bo'ladi. Shu ma'noda, nutqda ta'kidlanganidek, inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbi-yalash — O'zbekiston o'z oldiga qo'yan strategik vazifalardan biri.

Davlat va jamiyat sa'y-harakatlarini in-son kapitalini rivojlantirishga yo'naltirish ijtimoiy barqarorlik mustahkamligi, hayotiy masalalarni o'zi hal etishga qodir avlodni tarbiyalashning muhim kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Qayd etilganidek, hamma uchun ochiq va sifatli ta'lim, kambag'allikka barham be-ri-sh, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning eng sama-rali omili hisoblanadi. Inson kapitali haqida gap ketar ekan, birinchi navbatda, sifatlari ta'lim olish, kasb-hunarga ega bo'lish im-koniyatlarini kengaytirish muhimdir. Mam-lakatimiz bu yo'nalishta natijalarni yax-shilash bo'yicha katta o'zgarishlarni qilyapti, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos o'rmaq va ibrat ko'rsatmoqda.

O'tgan olti yilda maktabgacha ta'limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 38 foizga yetgani O'zbekiston inson kapitalini rivojlantirishdek ezgu maqsad yo'lida qanchalik sobit ekanini isbotlab bermoqda.

Natijalar bor, ularni yanada yaxshilash, har bir inson shaxs sifatida rivojlanishi uchun yo'llar ochish bo'yicha katta va strategik muhim marralar belgilab olingan. Xususan, 2030-yilga qadar har bir bolaning bog'chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o'quvchining biri oliygohda o'qishi

uchun imkoniyat yaratilishi haqida ma'lum qilindi.

Bitta mamlakat emas, butun mintaqa yoshlarining salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun birgalikda harakat qilish, ularning o'zaro hamkor va do'st-birodar bo'lib ul-g'ayishi umumijimoiy barqarorlik kafolatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutqda aholisining deyarli yarmi yosh av-lod vakillari bo'lgan Markaziy Osiyo uchun yoshlar va ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish masalasi, ayniqsa, dolzarb ekanini ta'kidlandi. Bu borada qo'shni va qardosh davlatlarning birgalikkdagi ittifoqlari bosh-landi, izchil qadamlar tashlanmoqda.

Soha bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish maqsadida mintaq davlatlari tomonidan Yoshlar siyosatining umumiy yo'nalishlari haqidagi bitim imzolanganini buning amaliy tasdiqidir.

Bu jarayonda BMT va uning ixtisos-lashgan tuzilmalari bilan samarali hamkor-lik o'rnatish, boshqa mintaqalarning ilg'or tajriba va yutuqlarini o'rganish faqat foyda beradi. Shu jihatdan davlatimiz rahbarining BMT huzurida Markaziy Osiyo yoshlari-ni rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tashkil etish, "Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi — 2030" dasturini ishlab chiqish qatnashish mintaqaning uzoq is-tiqbolini ko'zlagani bilan ahamiyatlidir.

Bugun mintaqamiz davlatlari yetakchilari tashabbuskorligi asosida o'zaro muloqot va tushunishga tayanib, barqaror rivoj-lanishga erishilmoqda. Shu bilan birga, mintaq yoshlari oldida yangi chaqiruvlar ham paydo bo'layotir. Mintaqamiz kelajagi, taraqqiyot va barqarorlik darajasi ko'p jihat-dan bugungi yoshlar ehtiyojlarini o'rganish, maqsad va intilishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga ham bog'liq bo'ladi. Ish-onamizki, Prezidentimiz bildirgan takliflar amalga oshirishi Markaziy Osiyoda inson ka-pitali rivojlanish borishida strategik tayanch vazifasini bajaradi.



Jamoliddin KARIMOV, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston-ni rivojlangan mamlakatlar bilan si-yosi, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalar-dagi sheriklik munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Turkiya davlatlar tashkiloti, Ja-hon banki va Islom taraqqiyot banki kabi ko'plab nufuzli xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar tarkibida muhim tashabbuslar bilan faol ishtirok etmoqda.

Prezidentimiz joriy yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida o'zbek tilida nutq so'zlab, xalqaro ham-

DUNYO BIRDIR muammo va yechimlar umumiy

O'zbekiston inson qadriini yuksaltirishga qaratilgan keng ko'lami demokratik islohotlarni amalga oshirish, ochiq va konstruktiv tashqi siyosat asosida jahon hamjamiyati bilan o'zaro manfaatli hamda do'stona munosabatlarni rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Buning natijasida mamlakatning xalqaro maydondagi obro' va nufuzi tobora yuksalib borayotir.

jamiyatga global xavfsizlik hamda unga xavf solayotgan tahdidlar, inson huquqla-rini himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, Markaziy Osiyo mintaq-sidagi barqarorlik, o'zaro hamkorlikni ta'minlash, gender tengligi, iqlim o'zga-rishlari, ekstremizm va terrorizm illatlari yuzasidan o'z nuqtayi nazarini bildirdi hamda qator muhim taklif va tashab-buslarni ilgari surdi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida so'nggi yillarda O'zbekistonda inson huquqla-rini himoya qilish borasida erishilgan e'tiborga loyiq natijalarga alohida to'xta-lib o'tdi. Yaqin yillargacha o'qituvchi va shifokorlar, maktab o'quvchilari hamda talabalarning paxta dalasidagi majburiy mehnatiga odiydi holat sifatida qarab kelinardi. Natijada O'zbekiston paxtasi "qora ro'yax"larga kiritilib, boykotlar e'lon qilingan edi. Biroq so'nggi yillarda katta siyosiy iroda bilan mamlakatda majburiy

mehnatni cheklash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar inson huquqla-rini himoya qiluvchi tashkilotlar hamda xorijiy mamlakatlarning e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Jumladan, AQSHning nufuzli nashri — "Forbes" jurnali dalalarga majburiy va bolalar mehnatiga chek qo'yilgani, te-rimchilarga to'lanadigan haq oshirilgani, paxtaga davlat buyurtmasi yo'q qilingani ulkan yutuqlar sifatida qayd etdi.

Buyuk Britaniyaning "The Economist" jurnali esa 2019-yilda O'zbekistonda yil mamlakati, deya e'lon qildi. Albatta, bu e'tiroflar bejiz emas, ularning negizida hukumat tomonidan inson qadriini yuk-saltirish, uning huquq va erkinliklarini kafolatlash yo'lida amalga oshirilgan ul-kan sa'y-harakatlar yotadi. Eng muhimi, Konstitutsiyamizda majburiy mehnat taqchilanishi kafolatlab qo'yildi, buning uchun jinoyi javobgarlik belgilandi.

Shuni to'liq ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston hukumatining inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlari rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik o'rnatish imkoniyatlari kengayishiga, mamlakatga keng investorlar oqimi kirib kelishiga, pirovardida, yurtimizning nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki global iqtisodiyotning integratsiyalashgan markazlaridan biriga aylanishiga zamin yaratadi.

Bugungi kunda dunyoda keskin ekologik inqiroz holati kuzatilmoqda. Iqlim o'zgar-i-shi, atrof-muhit ifloslanishi, suv resurslari za-xirasi kamayib ketishi natijasida insoniyat ilgari duch kelmagani g'ayrioddiy tabiat ho-disalari, yuqumli kasalliklarning yangi turlari va boshqa ofatlar bilan to'qnash kelmoqda. Prezidentimiz bu muammolarni haqida to'xtalib, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazadigan tahdid ekanini ta'kidladi. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi asosiy suv resurslarini tashkil qiluvchi Amudaryo va Sirdaryo oqimining kelgusi-da yanada qisqarishi ehtimolini inobatga olib, mintaqada suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish orqali "Birlash-gan Millatlar Tashkiloti — suv resurslari"

mexanizmini amaliyotga tatbiq etish, iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq tahdidlarning ol-dini olish yuzasidan "Markaziy Osiyo iqlim muloqoti"ni joriy etish, BMT Bosh Assam-bleyasining "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamijhatlik" rezolyutsiyasini qabul qilish hamda Samarqand shahrida xalqaro iqlim forumini o'tkazish tashabbuslarini ilgari surdi.

Ekologik muammolar insoniyat taraqqiyoti va farovonligiga to'sinlik qilishi mumkin bo'lgan asosiy tahdid bo'lib turgan bugungi sharoitda bunday tashabbuslarni ro'yobga chiqarish global miqyosda iqtisodiy-ijtimoiy inqirozlarning oldini olishga, atrof-muhit hamda bioxil-ma-xillikni saqlab qolishga xizmat qiladi, eng muhimi, kelajakda insoniyatning faro-von hayot kechirishini ta'minlaydi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida ekstre-mizm va terrorizm tahdidlariga ham alohi-da e'tibor qaratib, BMTga a'zo davlatlarni xalqaro terrorizmga qarshi kurashda ham-korlikni yanada kuchaytirishga chaqirdi. Shu bilan birga, O'zbekistonda ekstremizm va terrorizm tahdidlarining oldini olish, mutaassib g'oyalar ta'siriga tushib qolgan shaxslarni sog'lom hayotga qaytarish va ij-timoiy reabilitatsiya qilish, nizoli hududlarda bo'lib turgan O'zbekiston fuqarolarini ortga qaytarish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida ham alohida to'xtalib o'tdi.

Darhaqiqat, ekstremizm va terrorizm XXI asrda insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ayrim mamlakatlarda ko'zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik va islomofobiya kabi holatlar

ham ushbu muammolar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, Prezidentimiz jahon miqyosida dinlararo bag'rikenglik va hamijhatlik g'oyalarini keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekistonda UNESCO shafe-ligidagi Dinlararo muloqot va bag'rikenglik xalqaro markazini tashkil etish, islom dini-ning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida esa 2024-yilda "Islom — tinchlik va ezgulik dini" mavzusi-da xalqaro konferensiya o'tkazish haqidagi tashabbuslarni ilgari surdi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu tashabbuslar islom dini-ning insonparvarlik va tinchlikka qaratilgan mohiyatini keng targ'ib qilish, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning samara-li mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, O'zbekis-ton xalqaro munosabatlari subyekti sifatida BMT minbaridan muhim xalqaro va mintaqa-viy tashabbuslarni ilgari surish orqali jahon hamjamiyatida o'zining mustahkam o'rni-ga ega bo'lib bormoqda. Boisi, dunyo birdir, muammo va yechimlar ham umumiy.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari sur-gan taklif va tashabbuslar o'ta dolzarbli-ga hamda muhim hayotiy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovor. Shu sababli, bu taklif va tashabbuslar barcha a'zo davlatlar tomonidan insoniyat oldida turgan global muammolarning yechimini ko'rsatib beru-chi g'oyalar sifatida e'tirof etilib, BMT Bosh Assambleyasi faoliyatini yakunida imzola-nadigan asosiy huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topishi kutilmoqda. Bu O'zbekiston xalqaro hamjamiyatining o'z so'ziga ega bo'lgan faol ishtirokchisiga aylanib borayot-ganidan dalolat beradi.

ISLOHOT ODIMLARI

TEKNOLOGIK TURTKI

Ushbu tamoyil asosida yangi mahsulot yoki xizmat turi yaratiladi



Olimjon TO'YCHIYEV,
Innovatsion rivojlanish
agentligi direktori

Boshlanishi 1-betda

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda startap ekotimiz iste'dodlar va investorlar uchun mukammal uchrashuv joyiga aylangan. Yurtimizda ham ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotni takomillashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilayotgan bir vaqtda iqtisodiyotning real sektorlariga ilm-fan yutuqlarini joriy etish kelajakda ishlab chiqarishdagi muammolarni innovatsion yechimlar orqali bartaraf qilishga zamin yaratadi. Aynan mana shu ustunliklari uchun ham startap tanlovlarini sonini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotadi.

O'z o'rnida sohalarga innovatsion yangiliklar tatbiq etilishi natijasida ishlab chiqarish jarayonlari takomillashib, energiya samarador texnologiyalar joriy etiladi. Bu esa resurslar iqtisod qilinishi, tayyor mahsulot tanaxning kamayishi va albatta, bozorda yangi raqobatbardosh mahsulot paydo bo'lishiga, oxir-oqibat hayot tarzi, aholi farovonligi oshishiga olib keladi.

Insonlarning og'irini yengil, uzog'ini yaqin qilayotgan aqlli qurilmalar allaqachon hayot tarzimizning ajralmas bo'la-

giga aylangan. Bu borada hukumatimiz tomonidan yoshlarning xorijda tajribasini oshirishi uchun qilinayotgan sa'y-harakatlar, o'zlashtirilgan amaliy ko'nikmalar ham muhim omil bo'lmoqda.

2018-2023-yillar davomida doktorantura ajratilgan kvotalar soni 8,5 barobar oshdi. Strategiyaga ko'ra, startap-tadqiqotchilik instituti joriy etilib, kelgusi yilda 1 ming 800 nafar yosh olim qamrab olinadi. Anglash mumkinki, ilm-fan va texnologiyalarni yanada rivojlantirishning yangi ustuvor yo'nalishlarini shakllantirishda yosh olimlarning faolligini ta'minlashga katta ahamiyat berilmoqda.

Mamlakat rivoji, iqtisodiy taraqqiyot inson kapitali bilan chambarchas bog'liq. Mazkur jarayonda yosh tadqiqotchilarning faol ishtiroki nihoyatda muhim. Shuningdek, Global innovatsiya indeksida qayd etilgan past indikatorlar bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilash bo'yicha ham maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Buning natijasida xalqaro maydonda mamlakatning ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan, bozor talablariga moslashuvchan milliy innovatsion infratuzilmani shakllantirish va modernizatsiyalashga erishiladi. Mazkur sa'y-harakatlar mamlakatimizning global Innovatsion indeksda "Top-50" talik mamlakatlar ro'yxatiga kirishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida tashkilotlar, vazirlik va idoralarning ilmiy-tahliliy va uslubiy ishlarga buyurtmalarini oliyog'lar, ilmiy tashkilotlar tomonidan amalga oshirish bo'yicha yagona elektron portali tashkil etish ham ko'zda tutilgan. Yana bir muhim jihati, o'zaro manfaatdorlik, rag'bat va raqobatga asoslangan "innovatsiya — kapital — innovatsiya" siklik jarayonini ta'minlash ham belgilab qo'yil-

ganki, bu orqali ishlanma egasi, tadbirkor va investorlarning mulkka egalik huquqi kafolatlanadi.

Shuningdek, millatlararo munosabatlarni yo'nalishda ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalar amalga oshirilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim vazifa sifatida belgilanganidan ko'rish mumkinki, bu jabhada ham ilmiy izlanishlarni amalga oshirish jarayoni qizg'in tus oladi. Ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni rag'batlantirish maqsadida

Mazkur hujjatda ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi innovatsion ("spin-off") korxonalar sonini 2024-yilda 9 taga yetkazish ko'zda tutilgan bo'lib, bu arzon va raqobatbardosh innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqish imkoniyatini kengaytiradi.

Har qanday zamonaviy davlatning milliy iqtisodiyoti asosini tabiiy va mehnat resurslari bilan bir qatorda, ilmiy-texnik imkoniyatlari ham tashkil etadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining yangi sifat ko'r-

Davlatimiz innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi bilan iqtisodiyotga yangi tushuncha, yangicha amaliyotlar kirib kelmoqda. Tajriba almashinuvi, texnik yutuqlar va boshqaruv tajribasi transferi, olim va muhandislardan texnikaning boshqa sohalarda foydalanishni anglatadigan "spin-off" texnologiyalari biror ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish maqsadida amaliyotda samaradorligi isbotlangan texnologiyalarni joriy etishni anglatadi. Sodda tushuntiradigan bo'lsak, bu tashkilotning ayrim bo'limlarini mustaqil ishlab chiqarish subyekti sifatida aylantirgan holda biznesni rivojlantirish demakdir. Bunday yondashuv rivojlanish imkoniyati katta bo'lgan mahsulot yoki xizmatlarni yaratish g'oyasini amalga oshirib, bozorga olib chiqishdan avval nisbatan tor mutaxassislikdagi hamda moslashuvchan korxonaga kerak bo'lganida qo'llaniladi. Bunday holatda "texnologik turtki", deb ataladigan fenomen ish beradi. Ma'lum texnologik tamoyil asosida yangi mahsulot yoki xizmat yaratiladi.

Texnologik parklar, texnologiyalar transferi markazlari, innovatsion klasterlar, venchur fondlar, innovatsiya markazlari, biznes-inkubatorlar va akselerator innovatsion infratuzilma subyektlari hisoblanadi. Zimmamizga ularning sonini 2024-yilda 55 taga yetkazish, natijada oliy ta'lim tashkilotlaridagi bunday markazlarda startap loyihalarni akseleratsiyadan o'tkazish dasturlarini keng joriy etishdek vazifa yuklatilgan. Bu kabi katta maqsadlar "tarmoq — hudud — ilmiy-oliy ta'lim tashkiloti" janrining yaxlit tizimi joriy etilishi hamda "tubdan yangilovchi" innovatsiyalar yaratish imkonini yaratadi.

Iqtisodiyot tarmoqlari boshqaruvidagi kreativ yondashuv tufayli vujudga kelgan texnoparklar hududiy, ilmiy, texnologik va innovatsion loyihalarni amaliyotga tatbiq

etuvchi bazadir. Texnologiyalar transferi markazi esa innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan bo'lib, yosh loyihalarni hayotga tatbiq etish jarayonida qator afzalliklar beradi. Tegishli hududda innovatsiyalarni yaratishda ishtirok etuvchi innovatsion faoliyat subyektlarining samarali hamkorlik qilinishi anglatadigan innovatsion klasterlar quvvatlardan birgalikda foydalanib, bilim va ko'nikmalar almashish orqali mazkur faoliyatni rivojlantiradi.

O'z navbatida, startaplarni rivojlantirish uchun mablag' ajratadigan moliyaviy muassasa — venchur fondlar g'oyaning mahsulotga aylinishi, shu bilan birga, jahon bozorlariga chiqishiga ham ko'mak beradi. Har bir startapning istiqbolli yoki aksinchaligini tahlil qilish uchun investorda yetarlicha bilim bo'lmayligi mumkin. Venchur fond investitsiyalardan kapital yig'adi va uni istiqbolli loyihalarga sarflaydi. Eng asosiysi, bu jarayonda loyiha mualliflari qarzdor sanalmaydi. Strategiyada sonini oshirish va faoliyatini kengaytirish ko'zda tutilayotgan innovatsion infratuzilma subyektlari soha rivojiga xizmat qiladi.

Bugun har bir sohaga zamon ruhi kirib boryapti, har jabhada inson manfaatini ustun. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi zahirida aniq va rejali maqsad, qat'iyat, kuchli siyosiy iroda mujassam. Mamlakatimizning kelgusi yetti yillik taraqqiyotini, qolaversa, uning uzoq yillik rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi muhim hujjatdir. Bir so'z bilan aytganda, ilgama asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish, ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish borasida "oltin davr" bo'ladi.

JURNALIST SURISHTIRUVI

UCH YILGA KECHIKTIRILAYOTGAN LOYIHA

Tan olib aytish kerakki, yaqin-yaqin yillargacha Jizzaxning

olis manzillarini qo'ya turing, viloyat markazining ham ahvoli abgor edi. Suv, gaz, elektr ta'minoti, yo'llar, umuman, infratuzilma deyarli inqiroz yoqasiga kelib qolgandi. Kanalizatsiya tizimi esa butunlay izdan chiqqandi. Yozning jaziramasini-yu, qishning qahratonida ham anqiydigan qo'lansa hid odatiy holga aylangandi.



Jizzaxda kanalizatsiya tarmoqlari o'tgan asrning 70-yillari boshlarida qurilgan. U ham ko'p qavatli uylardagi oqova suvni chiqarib tashlash maqsadida shaharning markaziy ko'chalarida buyud etilgan. Shaharning asosiy qismi hovillardan iborat. Mahallalarga kanalizatsiya o'rnatish katta mablag' talab qilgan bo'lsa, o'sha paytlarda bu haqda o'yab ham ko'rilgan, — deydi Jizzax shahar hokimligi huzuridagi jamoatchilik nazorati kengashi raisi Hamroqul Mamatqulov.

Aniq bir arxitektura yechimlariga asoslanmagan, boz ustiga, pala-partish qurib tashlangan pastqam uylar, tabiiyki, odamlar kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmasdi. So'nggi yillarda poytaxt va viloyat

markazlaridan tortib, olis manzillarda ham zamonaviy me'moriy yechimlarni o'zida ifodalagan baland-baland inshootlar bo'y ko'rsata boshladi.

Bunday o'zgarishlar Jizzaxni ham chetlab o'tmadi. "Inson qadri uchun" shiori ostida Jizzax shahri zamonaviy qiyofasini yaratish, aholining turmush tarzini yaxshilash yo'lida xayriy ishlar amalga oshirildi. Ko'p qavatli turar joy massivlari, yangi maktab va bog'chalar, turli korxonalar qurilib, foydalanishga topshirildi. Tabiiyki, bu suv, gaz, elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojning keskin o'sishiga olib keldi. Ayniqsa, kanalizatsiya tarmog'i shaharning har tomonlama o'sishiga javob bermay qoldi.

Shu bois, birinchi galda kanalizatsiya tarmog'ini bunyod etmasdan turib, yuqoridagi maqsadlarga erishib bo'lmagligi oydinlashdi.

2018-yil 27-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Jizzax shahrida kanalizatsiya tizimini rivojlantirish" loyihasini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Mazkur yirik loyihani ro'yobga chiqarish bo'yicha Osiyo taraqqiyot bankining besh yillik imtiyozli davr va 25 yil muddatga qaytarish sharti bilan 79,5 million dollarlik krediti ajratilishi hamda O'zbekiston tomonining hissasi 11,719 million AQSH dollari ekvivalentida bo'lishi belgilandi.

Ushbu hujjatning yana bir ahamiyatli tarafi, Jizzax shahri ekologik va sanitariya-epidemiologik holatini butunlay yaxshilashga qaratilgan ushbu megaloyihani amalga oshirish uchun mas'ul idoralarni nomlari aniq ko'rsatilgan, "Yo'l xaritasi" belgilab berilgan. Har bir bajariladigan ishning aniq muddatlari tasdiqlangan.

Xususan, mazkur hujjatda oqova suv inshootlari qurib, topshirilish sanalari ko'rsatilgan. Jumladan, unda eng so'nggi obyektning qurilib, foydalanishga topshirilishining yakuniy muddati 2021-yil aprel oyi etib belgilangan. Lekin muddatdan ikki yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, hamon "tuya go'shti" yeyib yotibdi. Jizzax shahri qariyb 70 foizini qamrab oladigan, aholi turmush farovonligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ushbu loyiha nega yakuniga yetkazilmayotgani bilan qiziqdik.

"Jizzax suv ta'minot" MCHJdan olingan ma'lumotda qayd etilishicha, ushbu loyiha pudratchilarini aniqlash yuzasidan besh ta lot bo'yicha o'tkazilgan tender natijalariga ko'ra, "Akelik Group OJSC" (Ozarbayjon), "Shindong Enercom Inc" va "Techcross Water and Energy Ins" (Janubiy Koreya) kabi xorijiy kompaniyalar yutib chiqqan.

— Hozirga qadar loyihada belgilangan ishlarning qariyb 75 foizi bajarildi, — deydi "Jizzax suv ta'minot" MCHJ investitsiya bo'limi mutaxassisi Adham Muhiddinov. — Yuqorida nomlari keltirilgan uchta kompaniya bilan shartnoma muddatlari uch marta uzaytirildi. Masalan, birinchi marta 14 oyga kechikdi. Shartnoma bilan uzaytirildi. Keyingisi o'tgan yili bahorda 19,8 oyga, ya'ni 596 kunga, jami qariyb uch yilga uzaytirildi. Jarimalarisiz. Vaholanki, har bir kechiktirilgan kun uchun xorijiy kompaniyalar jarima to'lashlari kerak edi.

kishi ishlayapmiz. To'rt-besh tacha koreyalik mutaxassislarni inobatga olmaganda, asosan, o'zimizning "qora ko'z"lar mehnat qiladi. Maoshimiz ham uncha yuqori emas, 2,5 million so'm olamiz. Uch mahal ovaqt berishadi. Shunisigayam shukr qilamiz.

— Texnikalar, ekskavatorlar Janubiy Koreyadan keltirilganmi? — so'raymiz Behruzdan.

— Yo'q, shu yerdagi qurilish korxonalaridan ijaraga olamiz, — deydi u.

Qayta-qayta shartnoma shartlarining bajarilmasligi yoki kechiktirilishi va bu xorij kompaniyalari mutasaddilarini zararcha ham o'ylantirmayotgani, boz ustiga, hech bir jarimalarisiz shartnoma muddatlari uzaytirib berilayotgani qator savollarni tug'dirishi tabiiy.

Bu holat yuzasidan Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xalqaro hamkorlik va rivojlanish agentligi uch marotaba, xususan, oxirgisi o'tgan yil iyun oyida "O'zsuva'taminot" AJga yo'llagan xatida ushbu loyiha konsultanti tomonidan tayyorlangan hisobotlarda bir xil vajilar keltirilgani sababli loyiha konsultanti xulosasi maqsadga muvofiq emas, deb topilgan. Agentlikka ko'ra, pudratchiga yetarlicha muddat (502 kun) berilgan va har bir kechiktirilgan kun uchun jarima qo'llanilishi ma'lum qilingan.

Ushbu xatda aytilishicha, pudrat shartnomalaridagi bu kabi (qariyb 3 yil) kechikishlar qurilish ishlarini nazorat qiluvchi konsalting kompaniyalarining shartnomalariga ham bevosita salbiy ta'sir qilishi, ular bilan imzolangan shartnomalar qiymatining oshib ketishiga olib kelishi ko'rsatib o'tilgan. Shu sababli, pudratchiga qat'iy choralar ko'rish va kelgusida bu kabi paydo bo'ladigan ortiqcha xarajatlarni pudratchilarga nisbatan kechiktirilgan muddatlar uchun qo'llanilgan jarimalar hisobidan qoplashi talab etilgan.

Qolaversa, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi shu yilning 24-fevralida "O'zsuva'taminot" AJga yo'llagan xatida ham pudratchiga o'tgan yilning 17-fevralidan boshlab har bir kechikkan kun uchun jarima qo'llanilishi maqsadga muvofiqi aytilgan. Bundan tashqari, loyiha konsultanti tomonidan keltirilgan vajlar — 2021-yil 9-sentabrdan 2022-yil 17-fevralgacha noqulay ob-havo sharoiti va boshqa ko'rsatilgan texnik sabablari yuzasidan



Uning aytilishicha, tender shartlarida 30 foiz O'zbekiston kompaniyalari pudrat asosida ishlashi, qolgan 70 foiz ishlar janubiy koreyaliklar tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Biz shaharning qurilish ketayotgan ikkita obyektida bo'ldik. Yo'ning o'rtasidan qazilgan handaqlarda to'rt-besh kishi kuymalab yurgan ekan.

— Asli Forish tumanidanman. Xorij kompaniyasida ishlayman, — deydi o'zini Behruz Qudratov deb tanishtirgan yigit. — Hozir har bir obyektida besh-oltitadan, jami 60



taqdim etilgan hujjatlar vazirlik ekspertlari tomonidan o'rganib chiqilgan. Vazirlikning oydinlik kiritishicha, qayd etilgan muddat oraliqda loyiha hududida "anomali" sovuq kuzatilmagan yoki surunkali yog'ingarchilik yuz bermagan.

— Har bir shartnomaning uzaytirilishi Osiyo taraqqiyot banki bilan kelishgan holda amalga oshirildi, — deydi loyiha konsultanti — "SU-Yapi Engineering and Consulting Ins" vakili Lutfu Kaynar biz bilan telefon orqali suhbatda. — Faqatgina Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bir yil kechiktirib rozilik bergandan so'nggina shartnoma muddati uzaytirildi. Lekin buning uchun pudratchilarga jarima qo'llanilmadi. Shu bilan birga, bu uzaytirilish loyiha qiymatiga ta'sir qilmaydi.

Doimiy shu holat takrorlanavergandan uyim xalq, o'tgan yili ag'aban ketdi. Qaytadan uy qurishga majbur bo'ldik. Qo'shnilarimiz ham uylarining poydevorini baland, hovlisiga suv kirmaydigan qilib qayta quryapti. Lekin ko'chamizga burilishingiz bilan dimog'ingizga qo'lansa hid uriladi. Shunday paytda shaharning qoq markazida yashayotganingiz pushaymonlar bo'lib ketasan, — deydi u kuyinib.

"Jizzax suv ta'minot" MCHJning bizga ma'lum qilishicha, mazkur hududdagi kanalizatsiya tarmog'i yuqoridagi loyihaga kiritilmagan. Demak, Jizzaxning markaziy ko'chalariga yondosh hududlardagi muammolar o'z holicha qolaveradi.

Alohida qayd etish kerakki, yurtimizda xorijlik investitorlarga, chet ellik tadbirkorlarga qulay sharoit yaratilmog'ida. Shu bois, ular yurtimiz tadbirkorlari bilan bemaol raqobatga kirishmog'ida. Halol va shaffof o'tkazilayotgan tenderlarda xorij kompaniyalari ham qatnashib, ulkan bunyodkorlik ishlarida ishtirok etmog'ida. Bu esa qurilish ishlarining sifati va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlayapti. Taassufki, yuqoridagi holatda esa negadir buning aksi bo'layotir...

moqqa ulangan. Sal yog'ingarchilik bo'ldi deguncha, markaziy kanalizatsiya quvri quduqlaridan butun axlat tepaga toshib chiqib, ko'chalarimizni to'ldiradi. Yon-atrof qo'lansa hidga to'lib ketadi. Bunday paytlarda bu yerlarda yashash haqiqiy azobga aylanadi.

Binokor ko'chadagi 1-uyda yashovchi Botir Ahmedjonovning aytishicha, yog'ingarchilik mavsumida uning uyida favvulda vaziyatlar boshqarmasi mashinalari navbatchilik qiladi. Markaziy oqova suv tarmog'ida toshib chiqqan suv uning xonadonini ko'lga aylantirarkan.

Doimiy shu holat takrorlanavergandan uyim xalq, o'tgan yili ag'aban ketdi. Qaytadan uy qurishga majbur bo'ldik. Qo'shnilarimiz ham uylarining poydevorini baland, hovlisiga suv kirmaydigan qilib qayta quryapti. Lekin ko'chamizga burilishingiz bilan dimog'ingizga qo'lansa hid uriladi. Shunday paytda shaharning qoq markazida yashayotganingiz pushaymonlar bo'lib ketasan, — deydi u kuyinib.

"Jizzax suv ta'minot" MCHJning bizga ma'lum qilishicha, mazkur hududdagi kanalizatsiya tarmog'i yuqoridagi loyihaga kiritilmagan. Demak, Jizzaxning markaziy ko'chalariga yondosh hududlardagi muammolar o'z holicha qolaveradi.

Alohida qayd etish kerakki, yurtimizda xorijlik investitorlarga, chet ellik tadbirkorlarga qulay sharoit yaratilmog'ida. Shu bois, ular yurtimiz tadbirkorlari bilan bemaol raqobatga kirishmog'ida. Halol va shaffof o'tkazilayotgan tenderlarda xorij kompaniyalari ham qatnashib, ulkan bunyodkorlik ishlarida ishtirok etmog'ida. Bu esa qurilish ishlarining sifati va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlayapti. Taassufki, yuqoridagi holatda esa negadir buning aksi bo'layotir...

Yunus BO'RONOV,
Farhod NE'MATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbirlari



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official

DOLZARB MAVZU

YOD TANQISLIGI nega xavotirli?

Uning oldini olish va muammoni bartaraf qilish mumkin



Nodira ALIXONOVA, tibbiyot fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

Bu modda tanqisligi bolalar va o'smirlarda alohida belgilar bilan kechadi. Masalan, qalqonsimon bez kattalashuvi, jismoniy, aqliy va reproduktiv rivojlanish buzilishi kuzatiladi. O'rganish va xotira bilan bog'liq muammolar, konsentratsiya pasayishi, reproduktiv salomatlikdagi o'zgarishlar (bepushtlik, homiladorlik, erta tug'ilish) uchraydi. Balog'atga yetgan qiz va yigitlarda ham yod tanqisligi jismoniy va aqliy faoliyat pasayishi bilan birga keladi. Shuningdek, balog'at yoshida yod tanqisligi qalqonsimon bezning turli darajada kengayishi va tuzilishi buzilishi bilan kechadi. Tugun shakllanishi sodir bo'ladi. Har qanday yoshda yod yetishmasligi qalqonsimon bez funksiyasi pasayishiga olib keladi. Yuz, qo'l va oyoq shishishi, vazn oshishi, soch to'kilishi va ingichkalashishi, tirnoqning mo'rt va sinishga moyil bo'lishi, teri quruqlashishi yod tanqisligi

hosilasidir. Boz ustiga, xotira, diqqat va intellektual qobiliyat pasayadi. Sust-kashlik, voqealarga salbiy qarash paydo bo'ladi.

Yod tanqisligi bir necha xavfli oqibatlariga olib keladi. Doimiy va uzoq muddatli yod tanqisligi qalqonsimon bezning diffuz va tugunli bo'qoq kabi kasalliklari, homila tushishi, perinatal o'lim, bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsonlar, endemik kretinizm kabi kasalliklar bilan namoyon bo'ladi.

O'zbekiston yod tanqis hududda joylashgan. Mintaqamiz tuprog'ida va suvi-

oceanlardan uzoqda joylashgani ham yana bir muhim omil. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo hududida havo harorati juda yuqori bo'lishi tuproq tarkibidagi yod moddasi bug'lanib ketishiga sabab bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, yodning o'simliklar va oziq-ovqat mahsulotlari orqali odam organizmiga yetarli miqdorda qabul qilinishini cheklaydi. JSST yod tanqis hududlarda yashovchi barcha odamlar qo'shimcha yod qabul qilishini tavsiya etadi. Shu ma'noda, O'zbekistonda ham ommaviy profilaktika olib borilishi maqsadga muvofiq.

3 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan pallada bolalar jismonan va aqlan jadal rivojlanadi. Shu paytda ularga yod moddasi juda zarur. Bola me'yorida yod iste'mol qilmasa, keyinchalik hatto aqliy zaiflikka duchor bo'lishi mumkin.

Emizikli ayollardan farzandga juda ko'p mikroelement o'tadi. O'sha paytda yod yetishmasligi chaqaloqlar rivojlanishiga katta ta'sir qiladi. Yod mikroelementi emizikli ayollarda ona sutidan farzandga o'tadi. Shuning uchun chaqaloqning dastlabki bosqichda me'yorida rivojlanishi uchun ayolning o'zida ham yod miqdori yetarli bo'lishi kerak.

Mamlakatimiz yod yetishmovchiligi yuqori hudud hisoblanishi, tuprog'imiz va suvimizda yetarli miqdorda yod yo'qligi uchun ham xavf guruhiga kiruvchi aholini yod mikroelementi bilan ta'minlash bo'yicha profilaktik choralar ko'rish kerak. Avvalo, osh tuzini yodlash zarur. Keyingi profilaktik tadbir yodni yetarli darajada iste'mol qilish bilan bo'ladi.

Har uchta odamdan bittasi yod tanqisligidan qiyonadi. Kelgusida bu holat kamayishi mumkinmi, degan savol tug'iladi. Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, hozir bolalar orasida yod tanqisligi 53 foizni tashkil qiladi. Vaholanki, 2002-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarda yod tanqisligi 78 foiz edi. O'tgan yillarda olib borilgan profilaktik chora-tadbirlar natijasida bu ko'rsatkich qariyb 30 foiz kamayishiga erishildi. Ilgari yod profilaktikasi ba'zi hududlarda o'tkazilgan bo'lsa, erishilgan ijobiy natija mamlakatimiz bo'ylab bu sa'y-harakatlarini ommalashtirish uchun asos bo'ladi. Bu keyinchalik nafaqat bolalar, balki kattalarda ham yod tanqisligi kamayishiga olib keladi.



da yod kam. Bunga mutanosib ravishda oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida ham bu muhim mikroelement yetarli emas. Shuning uchun tavsiya etilgan kundalik yod miqdorini oziq-ovqat orqali qabul qilish imkonini deyarli yo'q. Mamlakatimiz yod manbai hisoblangan dengiz va

Uchta katta xavf guruhi bor. Shu uch guruhda juda ko'p asorat kuzatilishi mumkin. Birinchi xavf guruhiga bolalar kiradi. Ikkinchisi homilador ayollar hamda uchinchisi emizikli onalardir. Bolalarda yod yetishmovchiligi qanday asoratlarga olib kelishi yuqorida aytiladi. Aynan

BUGUNING GAPI



BUXORO BRENDIGA AYLANAYOTGAN SOHA

Alijon YAXSHIYEV,
Raqamli texnologiyalar
vazirligi Buxoro viloyati
boshqarmasi boshlig'i

Boshlanishi 1-betda

IT kompaniyalar uchun istiqbolli loyihalarni ilmiy va ta'lim tashkilotlari bilan integratsiyalashgan holda ishga tushirish va bozorga chiqarishni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Buxoro shahar hokimligi tomonidan IT park binosini qurish uchun "Bukhara city" zamonaviy ishbiarmonlik va turar joylar markazi hududidan 14 415 kvadrat metr yer ajratilgan.

To'qqiz qavatli IT park binosi tarkibida majlislar zali, kibersport xonasi, kovorking markazi, o'quv auditoriyalari, IT akademiyasi, IT hotel hamda rezidentlar uchun ofislar tashkil etilishi belgilangan. Hozirda keng ko'lami qurilish ishlari davom etmoqda, binoni 2024-yilning dekabr oyida to'liq foydalanishga topshirish mo'ljallangan.

Prezidentimizning 2021-yil 21-22-yanvar kunlari Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida va Xalq deputatlari viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasida berilgan topshiriqlar bo'yicha Buxoro shahri markazidan dasturchilar uchun joy ajratilgan edi. Bugungi kunda "Buxoroagroklaster" MCHJ tomonidan jami 950 kvadrat metrdan iborat 9 ta xona joriy ta'mirlandi hamda zamonaviy mebel va kompyuter jihozlari bilan ta'minlanib, ishga tushirildi. Binoda Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnoparkining Buxoro filiali faoliyatini yuritmoqda.

Viloyatda IT park rezidentlari soni o'tgan yili 18 ta, ularda ishlaydigan xodimlar soni 60 nafar edi. Axborot texnologiyalari sohasini yanada rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoit tufayli bugungi kungacha rezidentlar 40 tga, xodimlar soni esa 382 nafarga yetdi.

2022-yilning birinchi yarim yilida rezident kompaniyalar tomonidan 2 milliard so'mlik xizmat ko'rsatilib, eksport amalga oshirilgan bo'lsa, joriy yilning shu davrida rezidentlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 8 milliard 807 million so'mga yetib, eksport hajmi 378,4 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Eng muhimi, yil yakuniga qadar xizmatlar hajmini 40 milliard so'mga, eksport hajmini 3 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Besh muhim tashabbus, jumladan, uchinchi tashabbus doirasida viloyatning barcha shahar va tumanlarida IT parkining jami 12 ta raqamli texnologiyalar o'quv markazi tashkil etildi. 2021-yildan bugungi kungacha qadar mazkur markazlarda 8 700 nafardan ortiq yosh ta'lim oldi. Quvonarlisi, ularning 133 nafari bepul o'qitildi.

O'quv markazlarida veb dasturlash — python, HTML, PHP, kompyuter savodxonligi, IT English, robototexnika, mobil ilovalar yaratish — java script, grafik dizayn — photoShop, corel draw kurslari ochildigan. "Bir million dasturchi" loyihasining mantiqiy davomi hisoblangan onlayn platformada tashkil qilingan Coursera o'quv kurslariga hozirda 1241 nafar yosh qatnashmoqda.

Yoshlar va davlat organlari xodimlarini IT ta'lim kurslarida o'qitish bo'yicha viloyat hokimi tomonidan tasdiqlangan reja-jadvalga asosan, shahar va tumanlarda ochilgan raqamli texnologiyalar o'quv markazlari hamda IT parkning ta'lim rezidentlari tomonidan o'qitish ishlari boshlangan. Joriy yil yakuniga qadar 4000 nafar yosh va davlat organlari xodimlari o'qitish rejalashtirilgan.

Buxoro azaldan ilm-fan markazi bo'lgani, bugun ham bilimlil, intiluvchan yoshlar ko'p, shu bois, Buxoroning IT sohasi bo'yicha brendini yaratish borasida axborot texnologiyalari sohasida malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, yoshlarning yuqori maoshi kasb egasi bo'lishlarini ta'minlash maqsadida axborot texnologiyalari va dasturlash yo'nalishlari bo'yicha 18 ming nafarga yaqin aholi o'qitildi. Bu esa viloyatda o'zini



o'zi band qilganlar soni 1 564 tadan 2 483 taga oshishiga olib keladi.

Prezidentimizning 2022-yil 22-avgustdagi "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda Vazirlar Mahkamasi-ning 2023-yil 6-iyuldagi "Buxoro viloyatining Qorako'l IT klaster faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risida"gi qarorlari bilan Qorako'l tumanida raqamli texnologiyalarga ixtisoslashtirilgan, zamonaviy talablarga javob beradigan axborot texnologiyalari sohasida ta'limdan ishlab chiqarishgacha bo'lgan yaxlit zanjir yaratishni ko'zda tutuvchi IT klaster faoliyatini yo'lga qo'yish belgilangan.

Loyiha doirasida Qorako'l tumanida Hindistonning Acharya universiteti tashkil etilib, IT klaster faoliyatini yo'lga qo'yiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarida raqamlashtirish jarayonini yanada jadal-lashtirish maqsadida viloyat, shahar va tuman hokimliklarining yangi talqindagi rasmiy veb-saytlari va mobil ilovalari ishga tushirildi. Shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlari hamda davlat organlari uchun age.buxoro.uz portali sinov tarixasida o'z faoliyatini boshladi. Hozirgi kunda mazkur loyihalarni yanada takomillashtirish ishlari olib borilmoqda.

Viloyat, shahar va tuman hokimliklarining IT infratuzilmasini rivojlantirish va kibernetizatsiyani ta'minlash maqsadida bir qator me'yoriy hujjatlar to'plami ishlab chiqildi, kompyuter parklari va server xonalarida texnik tadbirlar tashkil etildi.

Buxoroning 600 ta korxonasi va tashkiloti edo.jro.uz idoralararo elektron hujjat aylanish tizimidan foydalanadi. Joriy yil yakuniga qadar tizimga ulanadigan korxonasi va tashkilotlar soni 1700 taga yetkazildi.

Viloyatdagi jami 1455 ta aholi maskanini optik tolali aloqa liniyasi bilan qamrab olish darajasi hozirda 92 foiz bo'lib, uni yil yakuniga qadar 96 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish bilan bir qatorda viloyatda 1929 ta ijtimoiy soha obyekti, jumladan, 559 ta xalq ta'limi, 475 ta maktabgacha ta'lim, 351 ta tibbiyot muassasasi hamda 544 ta MFY binosida optik tolali aloqa liniyalari orqali zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda yuqori tezlikdagi internet xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Buxoro turizm rivojlangan viloyat ekanini inobatga olib, sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida barcha — 358 ta mehmonxonada yuqori tezlikdagi internet xizmatlari joriy etildi. Viloyatda mobil aloqa qamrovini kengaytirish va sifatini yaxshilash maqsadida 153 ta yangi baza stansiyasi o'rnatildi va 89 ta mavjud baza stansiyasi modernizatsiya qilindi. Natijada aholi maskanlari mobil aloqa bilan 99 foiz, keng polosali mobil internet xizmati bilan 95 foiz, raqamli televideniye signal-lari bilan 100 foiz qamrab olingan.

ACHCHIQ, AMMO OCHIQ GAPLAR

Oliy ta'lim muassasasini imtiyozli tamomlab, yo'llanma bilan kelgan yigitning mag'rur boqishidan xursand bo'lgan "ariza yozing", dedim.

— Ariza namunasi bormi? — dedi u xotirjam. — Qarab yozish uchun...

Bizda unaga namuna yo'qligini, arizani har kim o'zicha yozgani ma'qulligini aytdim. Yigit bir oz o'ylanib turgach, arizani tashqarida yozib kelishga ruxsat so'radi va chiqib ketdi...



YOXUD FIKRLASH UCHUN BOSHIMIZ BORLIGI ESIMIZDAN CHIQUIB KETMASIN

— Sizning hujjatlaringizni kadrlar zaxirasiga tayyorlayotgan edik, tarjimai holiingizni yozib bersangiz, — dedim boshqa bir tajribali xodimga.

— Namuna bormi? — so'radi u.

— Yo'q, o'zingiz bilganingizcha yozavering.

— Birorta namuna bo'lsa yaxshi edi-da.

Yana biri xizmat safaridan qaytganini aytib kirib keldi. Tabiiyki, safar hisobotini so'radim.

— Namuna bormi? — so'radi u ham bemalol...

Stol ustidagi telefon ustma-ust jiringladi. Go'shakni oldim. Shumxabarni eshitib, joyimga o'tirib qoldim. Ichimdan bir nima uzilib ketganday bo'ldi. Mo'tabar ustozlarimizdan biri olamdan o'tibdi. Birmuncha vaqt o'tib o'rinosarimni chaqirdim. Holatni tushuntirib, gazetada chop etish uchun muhtasar ta'ziyanoma matnini tayyorlash kerakligini aytdim. U bir muddat kalovlanib turgach, sekingina "birorta namuna yo'qmikin?" dedi.

O'ylanib qoldim. Oddiy yumushni bajarish uchun ham bosh qotirishni istamay qolmaymizmi? Yoki hamma narsani namunaga qarab to'ldirib qo'ya-

qolish osonroqmi? Loyiha tayyorlashga ham, dissertatsiya yozishga ham, oddiy xabar yuborish... kechirasizu, ta'ziyanoma bildirishga ham namuna izlab qolmayapmizmi? Fikrlash tarzimiz ham andozayu qolipga tushib, boshqacharoq fikrlaganlar ko'zimizga g'alati, hatto hunkroq ko'rinib qolmayaptimi?

Nima masalada ekani hozir yodimda yo'q, ancha yillar ilgari ishxonamizda so'rovnoma o'tkazildi. Jamlanganlarga so'rovnoma varaqlari tarqatildi. Ko'pchilik savollarga javob berishda kimdandir so'rasangiz intilayotgani, ikkilanayotgani kuzatildi. Bir yoshi kattaroq xodimimiz esa, hammadan oxirida qolib, mendan javoblarini tekshirib berishimni iltimos qildi. Aslida, jamoatchilik fikrini o'rganish uchun berilgan bu oddiy savollarga javob berayotgan kishining shaxsi ko'rsatilmayotgan edi. Shunda ham aksariyat xodimlar o'ylanib, fikr bildirishdan ko'ra, kimningdir javobini ko'rib yoki so'rab belgilab qo'yishni ma'qul ko'rganiga hayron bo'lgandim.

Bir vaqtlar yon daftarimga "Notanish manzillarda sayohatchilarni gidlar yo'l boshlab, tanishtirib borishadi. Ba'zilar butun hayoti davomida ham gidlarga ehtiyoj

sezib yashaydi", deb yozib qo'ygan ekanman. O'sha daftarimdagi yana bir latifamondan gap undan-da qiziqqa o'xshadi:

— Bir kuni da'afatan boshim og'rib qoldi. Xursand bo'lib ketdim, — dedi bir tanishim. — Anchadan beri faqat boshqalar bergan topshiriqlarni bajarish bilan ovora bo'lib, boshim borligi esimdan ham chiqib ketgan ekan...

Hazillashib aytilgan bu gapning tagidagi "zil" kishini o'ylantiradi: nafs-lamirini aytganda, jiddiyroq razm solsak, atrofimizda "boshi borligi esidan chiqib ketgan odamlar" oz emasligiga guvoh bo'lamiz.

Ehtimol, bu holat yaqin o'tmishdagi "fikrsizlik" yoki "hamma uchun bir kishi fikrlaydigan" davrlarning asoratidir. Ammo endi vaziyat ham, jamiyat ham o'zgardi-ku! Dunyoga yuz tutayotgan yangi O'zbekistonda fikrlab, izlanib, intilib yashayotganlarning oshig'i olchi, dasturxon to'kin, hayoti farovon bo'layotgani barchaning ko'z oldidagi oddiy haqiqatga aylandi.

Yarim asrga yaqin qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtida talabalarga saboq berib kelayotgan ustoz sifatida yoshlarga, shogirdlarimga bir narsani ko'p

takrorlayman: mamlakatimiz mustaqillikka erishgan davrda aholimiz yigirma millionga ham yetmas edi. O'tgan davr mobaynida bu ko'rsatkich qariyb ikki barobar oshdi. Yer maydoni, suv resurslari ko'paymasligini hisobga olsak, endi aholining qornini to'q, egnini but qilishning yagona yo'li sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishga ilmiy asoslangan fan va texnika yangiliklarini joriy etishdan iborat. Ilm bilan nimagadir erishish uchun esa o'qish, izlanish, fikrlash, xulosa chiqarish, yangilikni amaliyotga joriy etish lozim bo'ladi. Obrazliroq qilib aytganda, endi bizni ketmonimiz emas, aqlimiz, fikrimiz boqadi. Yurtdoshlarimiz orasida kaftdek-kina tomorqasidan aql va halol mehnat bilan yaxshi daromad olib, farovonlikka erishayotganlar ham, aksincha, bu haqda bosh qotirishga, fikrlashga erinib, hayotidan nolib yashayotganlar ham borligi shundan — fikrlash va fikrsizlikdan.

Ertaiga oliy o'quv yurti bitiruvchilari bilan uchrashuvga boraman. Ularga tumanimiz, yo'nalishimiz, rejalarimiz haqida hikoya qilib beraman va bizga MUSTAQIL FIKR BILAN ISHLAYDIGAN yetuk yosh mutaxassislar kerakligini aytaman.

Habib SIDDIQ,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi,
"Shuhrat" medali sohibi

1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni

Cho'l muallimi

Yoxud hozirgacha dars berayotgan 98 yoshli o'qituvchining umr daftaridan bitiklar

Egamshukur ota bugun 98 yosh ostonasida. Salkam bir asrlig umrining yetmish yilini o'qituvchilik kasbiga sarflagan. Hali-hamon maktabda dars beradi. Turmushning og'ir karvonidan qolgan og'riqlarni o'quvchilar bilan ovunib, bir dam bo'lsa-da, unutadi. Shinam, yorug' sinfxonalarga kirib, ko'ngli yorishadi. Dili yayrab, yoshlardek dars o'tishga kirishganiga havas qilasiz.

Gohida shogirdlari dangasalik qiladigan bo'lsa, qo'ldagi hassasi bilan po'pisa qilib, hushyorlikka undaydi. Navqiron yoshlarning mavzu yuzasidan bergan har bir savoliga javob beradi, erinmaydi. Ba'zida o'quvchilarning u kishidan bolaligi qanday o'tgani haqida so'rab qolishi, otaning yurak tubidagi yaralarni tirnab yuboradi. Ko'ziga yosh kelib, o'sha mash'um qaro kunlarni xotirlashni xohlamaydi. Lekin na iloj, balki bu ham bolalarga bir saboq bo'lar, deya og'ir xo'rsinib, so'z boshlaydi.

Tinchlik istab

...1924-1925-yillar. O'sha paytda ko'pchilik kerak bo'lgan tinchlik oxiri Begimqul bo'g'a ham kerak bo'lib qoldi. Qancha mol-mulki-yu, chorvasi birgina tinchlik degan ne'matni qo'lga kiritishga arzimadi. Aksincha, sho'rolar tuzumi boy bormi, biror savodli kishi bormi, barchasiga rahna sola boshladi. O'z kunini ko'rib yurgan xalqning ormi buzildi. Xavotirli damlar boshlangach, Begimqul boy ham o'z tug'ilgan joyi — Koson tumanidan ko'ch-ko'ronini tuyalarga ortib, chorvasini oldiga solib, oilasi bilan osoyishtalik istab yo'lga chiqdi. Bir muddat Dehqonobodda yashadi. Bu yerda ham turli gap-so'zlar ko'payavergach, Denov tomon yo'lga tushdi. Surxon hududida ham ro'shnolik topmay, Tojikiston tomon karvon tortib ketadi.

Tunu kun yo'l yurish karvon yo'lovchilari ancha toliqtirgan, barcha holdan toyib, hatto tuyalar ham oyog'ini sudrab bosib qolgan pallada qarochi yo'lto'sarlarga duch keldi. Bir zumda bor boyliklarini tortib olib, ikkita tuyasi bilan qoldirib ketishdi. Azobli kunlar boshlandi. Osmon yiroq, yer qattiq. Dardingni eshitadigan odamning o'zi yo'q. Bir ahvolda, darmonsiz Begimqul boy Uyali degan joyda yashash uchun chodir tikdi.

1926-yil kech kuzida boynig o'ng'ich kelinining ko'zi yorib, o'g'il farzand dunyoga keldi. Ammo yo'qchilikning ta'sirida yangi tug'ilgan mehmonni o'rab olish uchun bir enlikkima mato topilmadi. O'zga joyda gado bo'lib qolgan boy ustidagi yaktagini yechib berishga majbur bo'ldi.

Yaxshi kunlardan umid qilib, go'dakka Egamshukur deb ism qo'yishdi. Afsuski, tun ortidan quyoshning chiqishiga hali ancha vaqt borgan o'xshaydi. Boyning o'g'li Abdunazar non topish ilinjida shu yaqin atrofdagi yangi xo'jalikka o'z tuyasi bilan bug'doy tashuvchi bo'lib ishga kiradi. Har safar omborga bug'doy olib borganida xizmat evaziga berilgan bir hovuch g'alla oilaning kuniga yaray boshlaydi. Boshqalar omborxonaga yuk bilan bir kunda bir qatnasa, Abdunazar ikki marta boradigan bo'ldi.

ro'z'orga baraka kirdi. Ammo bu ham ko'p-ga bormaydi. Ayrim nokaslarning tuhmatiga uchrab, Abdunazar turmaga jo'natildi. Ro'z'orning koriga yarab turgan rizq ham uzildi. Ochlikdan xarob bo'lishni istamagan, "boy" degan nomigina qolgan Begimqul jandasi ko'tarib, oilasi bilan toqqa chiqib ketdi. O'sha yerda chayla qurib, toshlar orasida pista terib, kun kechirdi.

To'qqiz oy qamoqda yotgan Abdunazar nihoyat oqlanib, ozodlikka chiqdi. Ota-onasini, oilasining bir ahvolda yashayotganini ko'rib, ularni yana oldingi joyga ko'chirib tushirdi. Xo'jalik rahbari bilan gaplashib, ishga kirdi. Bu orada ularga Surxondaryoda qolgan qarindoshlaridan Denovga kelishini, bu yerda kolhoz tashkil etilayotgani, ish borligi haqida xabar keldi. Bundan mamnun bo'lgan Begimqul ota Denovga ko'chib o'tdi.

...1933-1934-yillar. Abdunazar brigadiriligida Qashqadaryodan ko'chib borgan bir guruh aholiga Denovning cho'l hududidagi to'qayzorni o'zlashtirib, yer ochish topshirig'i berilgan. Qo'lga ketmon olib odamlar ishga kirishdi.

O'sha paytda 8 yoshli Egamshukur eski qo'rg'onida tashkil etilgan maktabga qatnay boshlagan. Zax va qorong'u xonada, yerga

og'irlashdi. Qahatchilik boshlandi. Urushdan jabr ko'rmagan inson qolmadi. Maktablar yopilib, bolalar ham yoppasiga front ortiga jalb etildi.

O'smir Egamshukur ham ko'pchilik qatori kolhoz ishlariga yordam bera boshladi. Odamlarning ocharchilikdan sillasi qurigan, mayitni qabrga qo'yishga erkak zoti topilmadi. Egamshukurning alpoqmat amakilari, akalari shu ketganiga urushdan qaytmadi. Kolhoz idorasi tomiga osilgan karnay frontdagi voqealardan tinmay axborot berib boradi. Ishchilar har bir voqeani diqqat bilan eshitir, qonli janglarning tezroq tugashidan umid qilib, kun sanardi...

1945-yil. Urush yakunlangan bo'lsa-da, asorati ketmagan edi. 1950-yillarga borib ahvol bir oz o'nglangandek bo'ldi. O'qish istagi tark etmagan Egamshukur maktabda saboq chiqarish uchun Koson tumaniga o'zi oldi. Onasi bilan tog'asiniqiga joylashib, 8-sinfga qabul qilindi. Savodi o'ziga yarasha bo'lgan bolakay darslarda o'qituvchi mavzuni so'rab qolishidan dovdirab o'tirar, ayniqsa, qattiqqo'l matematika o'qituvchisining vajohati barchasidan o'tib tushardi. Ikki yildan so'ng maktabni tamomlab, Denovga qaytib bordi.

Egamshukur Abdiyev 10-sinfni tamomlab kelganini eshitgan o'sha vaqtdagi Denov tuman xalq ta'limi bo'limidagilar uni ishga taklif qilishdi va kolhozga — boshlang'ich sinf o'qituvchiligiga jo'natishdi. Bundan g'ururlangan yosh yigitcha shahd bilan yo'lga tushadi. Bu paytda u oila qurib, ro'z'or tashvishi ham zimmasida edi.

Yosh muallimni haminqadar tayyorlangan ta'lim maskanida yaxshi kutib olib, di-



po'stak to'shab harf o'rganishni boshlagan usti yupun, qorni och bolalarning qulog'iga rus muallimining so'zlari kirmas, bir kun borgan o'quvchi qaytib bormaslikka harakat qilardi. Uch-to'rt yil deganda, arang harfini bir-biriga qo'shib o'qishni o'rgangan Egamshukur o'n to'rt yoshga yetganida Ikkinchi jahon urushi boshlanib, xalqning kuni yana

rektorning o'zi imtihondan o'tkazdi. Egamshukurga matematikadan dars o'tishga ruxsat berildi.

O'zqacha qiziqish bilan ishga kirishgan yosh yigit o'ylaganidek bu kasb yengil emasdi. O'sha paytlarda o'n-o'n beshta xo'jalikda bitta maktab bo'lib, o'quvchi soni ham shunga yarasha. Ertal tongdan tushgacha 6 soat, tushdan keyin kechgacha 6 soat, kechki payt yana tuni sinfga uch soat, katta yoshlilar uchun ikki soat dars o'tishga majbur edi. Ishdan horib, qaytgan er-xotin tun qorong'usida paxsa urar, tuproq orasida uxlab qolgan paytlar ham bo'lgan.

Bu holat har kuni davom etardi. Olayotgan 60 so'm maoshi oilasiga zo'rg'a yetardi. O'qib, qo'limga o'qituvchilik diplomini olib kelsam, oyligim ko'payar, degan umidda harakatga tushdi. Tojikistondagi o'qituvchilar tayyorlash institutiga hujjat topshirib, matematika fakultetining sirtqi bo'limiga o'qishga kirdi. Ammo o'zga yurtda o'qishning o'zi bo'lmadi, kelib-ketish mushkulligi bo'is, ikkinchi yilga borib, o'qishni tashlab ketdi. Bir oz o'tib, Termiz shahrida o'qituvchilar tayyorlaydigan oliygohning kunduzgi bo'limida o'qib, uch yilda diplomni qo'lga kiritdi.

Yana o'zi ishlagan maktabda ish boshladi. Har doimgidek, bir kunda 17 soat



dars o'tar, lekin maosh o'sha-o'sha — 60 so'mdan oshmasdi. Amallab qurgan bir xonalni uyida ikki farzandi, to'rt ukasi, onasi yashardi.

Yo'q maktabga direktor etib tayinlangan

1960-yillar. Sherobod cho'llarini o'zlashtirish boshlandi. Ko'p yillar brigadir bo'lib ishlagan Abdunazar ota ham el qatori shu tomonga shoshildi. Katta mashinada yuklarini ortib, oilasi bilan yangi ochilayotgan hududga ko'chib keldi.

Yangi kolhoz rahbari o'qituvchi qidirayotganidan xabar topgan Abdunazar ota o'g'li o'qituvchi ekani, biroq boshqa bir maktabda ishlayotganini bildirdi. Kolhoz raisi, tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri oqsoqoldan o'g'lini shu yerga ko'chirib kelishini iltimos qilib so'raydi. Ko'pchilikning yuzidan o'tolmagan otaxon o'g'lini olib kelish uchun mashina jo'natdi.

Ota so'zini ikki qilishni odat qilmagan Egamshukur noiloj yo'lga tushdi. Cho'lga kelib, hayratda qoldi: uy yo'q, hamma yer to'lada yasharkan. Shamol ko'z ochirgani qo'yamaydi. Ichimlik suv topilmas joy. Otasidan maqsadini eshitib, mudirga uchrashgani markazga yo'l oldi.

O'quv yilini yakunlab olishiga ham rozi bo'lmagan mudir Egamshukurni olib, yangi kolhoz tomon yetakladi. Yayoq cho'lga kelib, shu bugundan boshlab kolhozdagi maktabga direktor bo'lib tayinlanganini ta'kidlaydi. Egamshukur yon-atrofga tikilib, maktab binosiyu, kolhoz idorasi qayda ekanini an'angay olmay, savol nazari bilan rahbarga yuzlanadi. U kishi ham sezganday: "Maktab yo'q, uni siz qurasiz. O'qituvchini ham o'zingiz topasiz. Biz faqat bitta traktor bera olamiz", deya ortiga burilib ketdi.

Hali yo'q maktabga tayinlangan direktor odamlarni hasharga chaqirib, kattagina joydan yerto'la qazib, tuman markazidagi maktablardan eski partalarni keltirib kichikroq bo'lsa-da, moslashtirilgan maktab tashkil etdi. Endi asosiy muammo — o'qituvchi topish kerak edi. Yaqin atrofdan bu kasb egalari anqoning urug'i ekani barchaga ayon. Kolhoz agronomini va to'rt nafar o'ninchi sinfini bitirgan yoshlarni ishga taklif qildi.

O'quvchilarni ilgaj jalb etishning esa o'zi bo'lmaydi. Direktor kolxozdan berilgan traktor bilan xo'jaliklardan bolalarni yig'ib keladi. Dars yakunlangach, yana uylariga olib borib qo'yadi. Traktor minishga qiziqqan uchungina maktabga yo'l olgan bolalarning savodini chiqarish ancha mushkul edi. Bu orada qish boshlanib, hech kim farzandini jo'natmay qo'yadi. To'g'ri-da, qorong'i yerto'lada, sovuq va zax joyda kim ham bolasini o'qishga yuboradi.

Shu damlarda nafaqat direktor, balki aholiga ham oson bo'lmadi. Sahrodan yer ochish azobi, suv olib kelish mashaqqati ko'pchilikning madorini quritsa-da, chidadi. Sharoit bo'lmagani bo'is, odamlar orasida turli kasalliklar ko'paydi. Tibbiy xizmat yo'qligidan dardga davo topishning mush-

kuloti barchasidan o'tib tushdi. Oradan bir yil o'tib, aholi yashashi uchun uylar qurilib, kichikroq bo'lsa-da, maktab barpo etildi. Egamshukur domla o'zi bosh bo'lib, besh kilometr masofaga ariq qazib, maktab oldiga suv keltirdi. Denovdan tok ko'chatini keltirib, hovliga ekishdi. Keng sahrada niholning ko'karib turganini ko'rgan ko'z quv naydigani bo'ldi.

Bu mashaqqatlarni yengib o'tishning o'zi bo'lmadi. Bu orada u to'ng'ich farzandidan judo bo'ldi. Dardini ichiga yutishga-da bardoshi yetmay gohida dalaga chiqib yig'lab, ichini bo'shatib kelardi. Bu orada kolhoz shakllanib, dalalarga paxta ekilib, yerlar deyarli o'zlashtirib bo'lingan bo'ldi.

20 yil direktorlik vazifasini bajargan Egamshukur Abdiyev 1985-yilda pensiyaga chiqdi. U paytlarda ko'pgina qarindoshlari Qashqadaryoda ham yangi xo'jaliklar tashkil etilayotgani bo'is, Koson tumaniga ko'chib keta boshlagan. Ota yurtning sog'inchi o'rtab, u ham ko'pchilik qatori oilasini olib Kosondagi 52-sonli sovxozga joylashdi.

Cho'l muallimi yana maktabga qaytdi

Yangi manzil ham oldingilaridan qolishmasdi. Kengliklardan iborat saksuvulzor. Hali bu yerlarni o'zlashtirib, paxta ko'kartinib olish uchun qancha peshona teri to'kish lozim edi. Har tugul, bu yerlarda aholining yashashi uchun sharoit yaratilib, uylar qurilgan. Ammo yangi xo'jalikda maktab faoliyatini yo'lga qo'yishning o'zi bo'lmadi.

Kolhozning eski binosi o'quvchilarning ta'lim olishi uchun ajratildi. Afsuski, boshqa joylarda bo'lgani kabi bu yerda ham ustozlar yetishmasdi. Aholi Egamshukur muallimga direktorlik qilishini iltimos qildi. U kishi pensiyada ekani, qolaversa, bu ishni eplolmasligini aytib, rad javobini berdi. Shunday bo'lsa-da, odamlar uni matematikadan dars berishga ko'ndirdi.

"Cho'l muallimi" nomini olgan ustoz ko'pning so'zini qaytara olmay yana ta'lim dargohiga yo'l oldi. Yoshi oltmishdan oshganda g'ayrat qilib ishga kirishdi.

Yangi manziling maktabi ham boshqalarnikidan qolishmas, xonalar kichik, partalar yetishmasdi. Doskalar qo'lida yasalgan, jihozlar siniq edi. Cho'lquvarlar harakati bilan bu yerlar ham o'zlashtirilib, dalalarga paxta ekildi. Asta-sekin sharoitlar ham yaxshilanib bordi. Xo'jalik aholisining asosiy qismi Surxondaryodan ko'chib kelgani bo'is, "Surxon" mahallasi, deya nom berildi.

Kexsa qalbni yoshartirgan xabar

Inson umriga vaqt o'z ta'sirini o'tkazadi. Egamshukur ota ham keksayib, bir oz toliqadigan bo'lib qoldi. Endi muallimlikni ham yig'ishiraman, deb ahd qilib yurgan kezlar. Ishga qo'li bormasdan, ertaga yangi o'quv yil o'chiladigan kun bilim dargohi tomon borib, o'qituvchilar uni o'z gacha tarzda, mamnun qiyofada kutib olishdi.

66 TO'QQIZ OY QAMOQDA YOTGAN ABDUNAZAR NIHOYAT OQLANIB, OZODLIKKA CHIQDI. OTA-ONASINI, OILASINING BIR AHVolda YASHAYOTGANINI KO'RIB, ULARNI YANA OLDINGI JOYGA KO'CHIRIB TUSHIRDI. XO'JALIK RAHBARI BILAN GAPLASHIB, ISHGA KIRDI. BU ORADA ULARGA SURXONDARYODA QOLGAN QARINDOSHLARIDAN DENOVGA KELISHINI, BU YERDA KOLXOZ TASHKIL ETILAYOTGANI, ISH BORLIGI HAQIDA XABAR KELDI. BUNDAN MAMNUN BO'LGAN BEGIMQUL OTA DENOVGA KO'CHIB O'TDI.

— Ustoz, yangilikdan xabar topdingizmi?

— Yo'q, nima gap? Tinchlikmi?
— Tinchlik bo'lganda qandoq, yurtimiz mustaqilligi e'lon qilindi! Hamma joyda shu gap.

Quvonchdan ko'zlari porlab gapirayotgan o'qituvchilar hayajonda so'zlardi. Ammo keksa ustoz ko'zlariga yosh quyilib, oyoqlari o'ziga bo'yusunmay qoldi. Bundan ajablangan yoshgina o'qituvchi stul olib kelib o'tqazdi.

— Ustoz, nima bo'ldi sizga? Bundan xursand emasmisiz? Axir xushxabar-ku!

— Ey, bolam, — chuqur xo'rsingancha, yig'idan o'zini to'xtata olmay gapirardi ota. — Bu xushxabarni eshitish orzusida qanchalar odam o'lib ketdi. Men ham shu kunlarni ko'rmay o'tib ketamanmi, deya armonda edim. Yaratganga shukur, mana o'zi yetkazdi... Ko'ksim to'la dard edi-da. Boboming aybi boy bo'lgani uchun qancha sargardonliklarni boshdan kechirmadik deysiz. Eh-he, qanchasi o'zga tuproqlarda qolib ketdi. Ularni sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi. Bu ko'z yoshlar — quvonch yoshlari, xursandchilikdan, bolam.

Yurtda istiqbol nasimi esa boshlagani sabab ota qayta yoshardi. Maktabni tark etish fikridan qaytib, belni mahkam bog'lab ishga kirishdi. Javonga taxlab qo'ygan darsliklarni olib, astoydil mashg'ulotlar o'ta boshladi. Yoshlarga o'rnak bo'lib, erta tongdan bilim maskaniga borar, barchadan keyin qaytadigan bo'ldi. Otadagi bu o'zgarishlarni ko'rgan jamoa, qishloq ahli buning sirini bilolmay lol edi. Axir o'zgalari bu keksa qalb egasi qanchalar qora kunlarning guvohi bo'lib, yorug' kunlar kelishini umid bilan kutib yashaganini qayerdan bilsin?!

Bugun Egamshukur ota Abdiyev 98 yoshda. Lekin hamon o'z qishlog'ida 24-maktabda matematikadan dars berib kelmoqda. Gohida farzandlari endi o'qituvchilik qilmaslikni tavsiya qiladigan bo'lsa, baloga qoladi. Sakkiz farzand, qancha nabira, evara-chevaralarning sevimli bobojoni. Qo'lida hassa bilan sinfga kirib boradi. Ammo qiziq tomoni, dars boshlanishi bilan ota yosh yigitlardek, hassasini ham unutib, mashg'ulotga sho'ng'ib ketadi.

— Maktabga kelsam, kuch-quvvat olaman, — deydi Egamshukur ota. — Shunday chiroyli zamonda, shinam, hech bir kamchiligi yo'q maskanda ishlashning o'zi baxt-ku. Har kuni yangiliklarni kuzatib boraman. Yaratganga shukur. Kundan-kun yurtnim obod, farovon bo'lib boryapti. Prezidentimiz har sohaga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi, degan gapi menga juda ma'qul keldi. Ko'z tegmasin, ta'lim maskanlariga qarab ko'z quvnaydi. Gohida nolib o'tirgan yosh muallimlarni ko'rsam, hassam bilan yelkasiga bir tushirgim keladi. Ularga tanbeh berib, bir paytlar ishlagan davrlarimdagi sharoitlarni aytib beraman. Zora, ibrat bo'lsa, deymam-da...

Akbar G'OZIYEV, jurnalist

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallimga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1046.
43555 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15